



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Berdimuradova Mukaddas Normamatovna**

*Samarqand viloyati Nurobod tumani  
2-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERAKTIV METODLARNI QO'LLASH

**Annotatsiya:** Ushbu maqola umumta'lim maktablarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga hamda yozma va og'zaki savodxonligini oshirishga qaratilgan interaktiv metodlar haqida. O'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan va foydalanib kelinayotgan metodlar keltirilgan. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu - interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'lko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi,

faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikkatushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi.

Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning chala tarjimasini ko'p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlashish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro bahs-munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjihatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvohi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Zig-zag", "Oxirgi so'zni men aytay" "Venn diagrammasi", "BLUM taksonomiyasi" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. O'quvchilarni, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib e'tirof etilmoqda. Chunki bu o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi. O'zi uchun ham oila uchun ham foydali bo'lib hisoblanadi, hamma jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat albatta dastlab oilada, keyinchalik esa ta'lim muassasalarida shakllanadi.

O'qituvchi bu metodlarni har bir darsiga moslab, yangicha yondashsa, yangiliklar bilan bezab borsa, o'quvchi qiziqib o'rganadi. Chunki hozirgi



o'quvchilarni "bir xillik" zeriktiradi. Quyida tavsiya qilinayotgan metod ham o'quvchilarga juda yoqadi.

### **"G'ijimlangan qog'oz muhokamasi" metodi**

Bu metodning maqsadi o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, darsga hammani birdek jalb qilishdir. Bundan tashqari ushbu metod o'quvchilarni merganlik, sinchkovlik va dars davomida jismoniy harakatda bo'lishga o'rgatadi. Bu metoddan ona tili va o'qish, tabiiy fan, tarbiya fanlaridan foydalanish mumkin bo'ladi.

Bunda bizga sinfda nechta o'quvchi bo'lsa, shuncha oq qog'oz kerak bo'ladi. Mavzu bo'yicha har bir o'quvchi bitta savol yoki bitta so'z yozishi mumkin. Qog'oz g'ijimlanib dumaloq qilinadi va xonaning o'quvchilarga qulay bo'lgan joyiga qo'yilgan savatga orasi 2-2,5 metr bo'lgan joydan irg'itiladi. Savatga tushirolmagan o'quvchilarga qo'shimcha qisqa topshiriqlar beriladi. Masalan: tezaytish, topishmoq, qo'shiq, she'r.

Savatdagi g'ijimlangan qog'oz bittadan olinadi va savolga javob yoziladi. G'ijimlangan qog'oz ko'ptokchalar aralashib ketadi va savollar ham boshqa o'quvchilarga tushadi. O'quvchilar o'z javoblarini yozib, yana savatga tashlaydilar. Savatga tushirolmaganlar yana qo'shimcha topshiriqlar bajaradilar. Mavzuga doir topshiriq ham bo'lishi mumkin.

Uchinchi marta savatdan qog'oz ko'ptokchalar olinadi va savolga berilgan javoblar izohlanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini to'g'rilab turadi va qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi.

Shunday qilib, bu metod o'quvchilarni fikrlashi, yozma nutqini o'stirishga yordam beradi.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'quvchilarning bilimlari kengayib, fikrlash doirasi kengayib boraveradi.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot



uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

-O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

-O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

-Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

Zamon bilan hamnafas bo'lgan bugungi avlod farzandlarini kelajakka munosib qilib tarbiyalash, har bir kasbini jon-dili bilan sevadigan ustozning asl maqsadidir!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O'zMU

2. Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.

3. Xo'jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T.: 2003. -120 bet

4. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>